

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

USMONOV ZIYODULLA ULMAS O'G'LI

INKLYUZIV BANDLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Economical Science**

Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li

Inklyuziv bandlikni ta'minlashning nazariy asoslarini takomillashtirish..... 3

Усмонов Зиёдулла Улмас угли

Совершенствование теоретических основ обеспечения инклюзивной
занятости 27

Usmonov Ziyodulla Ulmas ugli

Improving the theoretical foundations of ensuring inclusive
employment..... 53

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 58

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

USMONOV ZIYODULLA ULMAS O‘G‘LI

INKLYUZIV BANDLIKNI TA‘MINLASHNING NAZARIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt2863 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim tarmog'ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Mamaraximov Bekzod Erkinovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar: Mambetjanov Qaxramon Qurbandurdiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xasanov Rustam Rabimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Farg'ona davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "28" 08 soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. faks: (99871) 239-43-51. e-mail: tdiu@tdiu.uz.


Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (4732 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. faks: (99871) 239-43-51. e-mail: tdiu@tdiu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "12" 08 kuni tarqatildi.

(2025-yil "12" 08 dagi 86 raqamli reyestr bayonnomasi).




S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, i.f.d., professor


D.S. Nasirxodjayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor


U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida inklyuziv bandlikni ta'minlash mehnat bozorida teng imkoniyatlarni yaratish, aholining har xil ijtimoiy qatlamlari, jumladan, yoshlar, ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar va kam ta'minlangan toifalarni iqtisodiy faollikka jalb qilish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda muhim omil hisoblanadi. Inklyuziv bandlik ijtimoiy adolat va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida muvozanatni ta'minlab, resurslardan foydalanishni optimallashtiradi va ichki talabni rag'batlantiradi. Jahonda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun inson kapitali samaradorligini rivojlantirish, munosib bandlikni ta'minlash va inklyuziv iqtisodiyotga o'tishning zamonaviy tendensiyalari ro'y bermoqda. Bu kabi islohotlar negizida Birlashgan millatlar tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlaridan 8-maqsadi "Barqaror, inklyuziv va barqaror iqtisodiy o'sishni, to'liq va samarali bandlikni va hamma uchun munosib mehnatni rag'batlantirish"¹ fundamental asos vazifasini o'tamoqda. Bundan kelib chiqib, inklyuziv bandlikni ta'minlash global rivojlanish strategiyalarida ustuvor yo'nalish sifatida qaralishi zarur.

Jahonda inklyuziv bandlikni ta'minlashning nazariy asoslarini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar mehnat bozorida tenglik va adolat mezonlarini shakllantirish, ijtimoiy himoya mexanizmlarini iqtisodiy modellarga integratsiya qilish, inson kapitalini rivojlantirish va mehnat munosabatlarida inklyuzivlikni baholash indikatorlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Bunda institutsional iqtisodiyot, bixevioristik iqtisodiyot va gender iqtisodiyoti konsepsiyalaridan keng foydalanilayotgani kuzatiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va mehnat bozorida transformatsiyalar inklyuzivlikni ta'minlash modellarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Bu tendensiyalar natijasida bandlik siyosatining inklyuzivligiga qaratilgan zamonaviy tahliliy instrumentlar va prognozlash usullari takomillashtirilmoqda.

O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini yangilangan konstitutsiyaning ilk moddasida akslantirgan holda ijtimoiy davlat ekanligini belgilashi inklyuziv bandlikni takomillashtirishdagi islohotlarning fundamental asosi vazifasini o'tamoqda. Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasining asosiy g'oyalaridan biri "...aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish"²dan iborat bo'lib, ijtimoiy davlat vazifalari kambag'allikni qisqartirish, manzilli ijtimoiy himoya tizimini yo'lga qo'yish, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay va maqbul muhitni yaratish, nogironligi bo'lganlarning inklyuziv bandligini ta'minlash hamda ularga to'siqsiz infratuzilma yaratish kabilar belgilab qo'yilishiga qaramasdan mehnatga layoqatli yoshdagi ko'zi ojiz shaxslarning bandlik darajasi 7 foizni ham tashkil etmasligi ushbu yo'nalishda keng ko'lamlislohotlar o'tkazish lozimligini ko'rsatadi. Ushbu islohotlar o'z natijasini berishi va samarali bo'lishi uchun chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish, inklyuziv bandlikning konseptual asoslarini ishlab

¹ BMT web-sahifasi: <https://sdgs.un.org/goals/goal8>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli farmoni.

chiqish, inson kapitalini rivojlantirishga investitsiya kiritish, ijtimoiy ehtiyojmand aholi konstruktiv fikrlarini tahlil etish, to‘siqsiz inklyuziv iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ijtimoiy tovarlar ishlab chiqarish va ushbu jarayonni tizimli ravishda uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyalarda aks ettirishni taqazo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentyabrdagi PF–158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida, 2023-yil 1-iyundagi PF–82-son “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2024-yil 23-sentyabrdagi PQ–330-son “Kambag‘allikdan faravonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 18-apreldagi PQ–209-son “Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta‘lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 20-oktyabrdagi PQ–407-son “O‘zbek imo-ishora tili va brayl alifbosini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 12-oktyabrdagi PQ–390-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslar jamiyatlariga tegishli tashkilotlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligiga ko‘maklashishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 21-dekabrdagi PQ–57-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ta‘kidlangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqot mavzusining o‘rganilganlik darajasi. Aholining tabiiy bandlik darajasi, bozor mexanizmlari natijasida bandlikka erishish, aholining zaif qatlamlarini davlat ish bilan ta‘minlashi zarur ekanligi, inklyuziv bandlikning ahamiyati, ko‘zi ojiz insonlar mehnat qobiliyati va xos xususiyatlari, nogironlar mehnat bozorini o‘rganish, ularning bandligiga ko‘maklashishni huquqiy tartibga solish masalalari A.Leymat, L.Laila Onu, Gedik Cansu, N.Rozali, A.Margaret, M.Fajardo, D.Birkenbax, D.Braddok, T.Burchardt, C.Barnes, G.Mercer, S.Verbruggen, A.Smit, J.Say, D.Rikardo, A.Marshal, J.M.Keyns va boshqa iqtisodchi olimlar tomonidan tahlil etilgan³.

³ Anne Leymat, Inclusive employment, Technical Resources Division June, 2011. 11-b.; Laila Onu Laila Onu, Promoting inclusive employment: a Romanian experience.// Open Society Institute, 2009, 2-b.; Gedik Cansu. Barqaror rivojlanish uchun inklyuziv biznes modellari //Kalit jurnali// “Samaradorlik fan va texnologiya” bosh boshqarmasining oylik, mart, 2017-yil. [https://www.mikadoconsulting.com/tr/surdurulebilir-kalkinma-icin-kapsayici-is-modelleri/#:~:text=Kapsay%C4%B1c%C4%B1%20i%C5%](https://www.mikadoconsulting.com/tr/surdurulebilir-kalkinma-icin-kapsayici-is-modelleri/#:~:text=Kapsay%C4%B1c%C4%B1%20i%C5%;); Anne Leymat, Inclusive employment, Technical Resources Division June, 2011. 11-b.; Verbruggen, S. (2018). Inclusive Employment: A Framework for Sustainable Work Practices. Journal of Workplace Inclusion, 12(3), 45-58.; Burchardt, T. (2000). Enduring Economic Exclusion: Disabled People, Income and Work. Joseph Rowntree Foundation, York Publishing Services Ltd., York, UK.; Barnes, C., &

Nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlash va uning huquqiy jihatlari, nogironlar mehnat bozorining o'ziga xos xususiyatlari MDH davlatlaridan N.I.Fadin, E.V.Belozerova, A.S.Osipov, N.I.Romanova, N.M.Belkova, V.N.Zyaznn, N.V.Gashenina kabi olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan⁴.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari mehnat va bandlik bozorini shakllantirish va tartibga solish jihatlari, aholini ish bilan ta'minlash, inklyuziv mehnat bozori, iqtisodiyotning inklyuziv o'sishi, inklyuziv iqtisodiyot va jamiyat qurishdagi muammolar hamda inklyuziv biznesning ustunliklari to'g'risida Q.H.Abduraxmonov, G.Q.Abduraxmonova, H.P.Abulqosimov, B.E.Mamaraximov, Z.Tolametova, M.Mirzakarimova, B.Tog'ayev, T.Mahmudov, M.T.Asqarova, D.Yusupov, X.T.Sadullayev, A.A.Abduxalilov, Q.Isayev va boshqa olimlar o'z tadqiqot ishlarini olib borishgan⁵.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ATD-2 "O'zbekistonda inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashning konseptual asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi davlat ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida inklyuziv bandlikni (ko'zi ojiz shaxslar bandligini) ta'minlashning nazariy asoslarini takomillashtirish borasida ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan inklyuziv bandlikni ta'minlashga bo'lgan turli yondashuvlarni o'rganish va qiyosiy tahlil olib borish;

Mercer, G. (2005). Disability, Work, and Welfare: Challenging the Social Exclusion of Disabled People. *Work, Employment and Society*, 19(3), 527-545.; Keynes, J. M. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. - N.Y.: BN Publishing, 2008. -296p.; Маршал А. Основы экономической науки. / Пер. с англ. – М.: Эксмо, 2007 г. -832 с.; Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. / Пер. с англ. – М.: Эксмо, 2016г. -1040 с.; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. / Пер. с англ. – М.: Эксмо, 2016г. -1056с.

⁴ Фадин Н. И. Совершенствование механизмов содействия занятости инвалидов России, Автореферат, // Москва – 2020. 33 б.; Белоzerova E.B. Стратегии занятости инвалидов в современном российском обществе, Автореферат, // Саратов – 2005. 28 б.; Осипов С.А. Социализация и содействие трудовой занятости инвалидов в условиях трансформирующейся экономики региона, Автореферат, // Воронеж – 2007. 31 б.; Белькова Н.М. Развитие трудовой занятости инвалидов в современных условиях России, Автореферат, // Москва – 2012. 29 б.; Зязн В.Н. Социально-экономическая политика обеспечения занятости инвалидов, Автореферат, // Москва – 2011. 27 б.; Гашенина Н.В. Регулирование занятости инвалидов в регионе, Автореферат, // Орел – 2007. 31 б.

⁵ Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт. Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «FAN» нашриёт давлат корхонаси, 2019. – 592 б.; Abduraxmonova G.Q. Mehnat iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020. 138 б.; Abulqosimov X.D. Iqtisodiyotda inson omili: shakllanishi, amal qilishi va faollashuvi. - T.: "Akademiya", 2006. 248 б.; Mamaraximov B.E. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni muvozanatlashtirishning asosiy yo'nalishlari. Iqt. fan nom. ... dis. avtoreferat – Toshkent. 2012. 27 б.; M.Mirzakarimova va U.Rahimova "Таълим хизматлари бозори ва меҳнат бозорини мувофиқлаштириш ёшлар бандлиги омили сифатида" "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2017 йил; Asqarova M. Необходимость обеспечения инклюзивного экономического роста страны, // Иқтисодиётда инновациялар, 4-жild, 4-son, Toshkent - 2021. 22-б.; Abduxalilov A.A. повышения эффективности государственного управления в условиях модернизации общества (на примере процессов занятости),// dissertatsiya, Toshkent – 2018, 79 – 80 betlar.; Yusupov D. Abdukhalilov A. Barriers to disability-inclusive employment in Uzbekistan.// journal of International Development,2022,34-son, 1048 – 1068 betlar; Sadullayev T.H. O'zbekiston iqtisodiyotining inklyuziv o'sishini ta'minlash yo'nalishlari // avtoreferati, Toshkent – 2023, 26-б.; Isayev Q. Ko'zi ojizlar ishtirokidagi sanoat korxonalarini faoliyati samaradorligini oshirish istiqbollari. PhD dar. olish. dis. Avtoreferat, - Toshkent. 2024. 25 б.;

ko'zi o'z shaxslarning mehnat bozorida faol ishtirokini ta'minlash hamda ularni ish bilan ta'minlashning obyektiv zaruratini asoslash;

nogironligi mavjud shaxslarning bandligiga ko'maklashishning xorij tajribasini o'rganish;

O'zbekiston Respublikasida ko'rish bo'yicha nogironligi mavjud fuqarolarga nisbatan bandlik siyosatini tahlil qilish;

ko'zi o'z shaxslarni ish bilan ta'minlashga ko'maklashish mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha asosli tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasida inklyuziv bandlikni ta'minlashda ko'zi o'z shaxslar bandligi bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotning predmeti inklyuziv bandlikni (ko'zi o'z shaxslar bandligini) ta'minlash jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini bajarishda tizimli, tarkibiy, retrospektiv, mantiqiy, qiyosiy tahlil usullari, umumlashtirish, deduksiya va induksiya usullari, ijtimoiy so'rovnomalar, axborotni qayta ishlashning statistik usuli qo'llaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra, "inklyuziv bandlik" tushunchasining iqtisodiy mazmuni mehnat bozorida kam ta'minlangan, nogironligi bo'lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlarning ish bilan ta'minlanishini rag'batlantirish orqali iqtisodiy o'sishda keng jamoat ishtirokini ta'minlash, iqtisodiy faollik darajasini oshirish hamda daromadlar taqsimotida tenglikka erishish imkonini beruvchi mehnat resurslaridan to'liq va adolatli foydalanishni ta'minlash nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

nogironligi bo'lgan shaxslarning qobiliyati va iste'dodlaridan foydalanishga oid inson kapitali nazariyasi, inklyuziv iqtisodiyot, imkoniyatlar tengligi nazariyasi va qobiliyatlar yondashuvi konsepsiyalariga ko'ra, boshlang'ich ta'limdan keyingi davrdan boshlab barcha ko'zi o'zlar uchun ixtisoslashtirilgan "Nurli maskan" maktablarida shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan sinflar tashkil etish taklifi asoslangan;

o'rtacha yillik ishlovchilari soni 50 nafardan ortiq bo'lgan xususiy biznes subyektlari jami xodimlarining 30 foizi nogironligi bo'lgan shaxslardan iborat tadbirkorlik faoliyatiga "inklyuziv biznes" maqomi berish hamda mazkur korxonalariga davlat xaridlari va imtiyozli kreditlar taqdim etish orqali inklyuziv bandlikni oshirish taklifi asoslangan.

nogironligi mavjud shaxslarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga oid moliyaviy inklyuziya nazariyasi va ijtimoiy tadbirkorlik konsepsiyasiga ko'ra ko'zi o'z shaxslar o'rtasida biznes savodxonligini oshirish uchun maxsus kurslar tashkil etish hamda biznes boshlashlari uchun BHMning 100 baravariga teng foizsiz kreditlar ajratish orqali bandlik darajasini oshirish taklifi asoslangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ko'zi o'z shaxslar ishsizlik darajasining mamlakat iqtisodiy o'sishiga bevosita ta'sirini aniqlashga yordam beruvchi uslubiyat ishlab chiqildi hamda ushbu shaxslarning mehnat qobiliyatlari ishlab chiqarishning barcha sektorlariga yuqori rentabellik olib kelishi aniqlangan;

inklyuziv bandlikni rivojlantirish va ko‘lamini oshirish uchun masofaviy ish joylarini tashkil etish, zamonaviy kasb ko‘nikmalarini shakllantirish uchun kasbiy reabilitatsiya dasturlarini amalga oshirish taklif etilgan;

ko‘zi ojiz shaxslar mehnatidan foydalanishning samarali tizimini ishlab chiqish uchun ularga biznes ko‘nikmalarini shakllantirish va startap loyihalarni boshlashlari uchun moliyaviy yordam tartibini joriy etish zarurati aniqlangan;

professional va oliy ta‘lim tashkilotlarida hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida aqliy mehnat bilan band bo‘lgan ko‘zi ojiz shaxslarga yordamchi “assistent kotiba” shtatini joriy etish va davlat byudjeti tomonidan moliyalashtirish amaliyotini joriy qilish to‘g‘risidagi taklif ishlab chiqilgan;

nogironligi bo‘lgan shaxslar bandligini ta‘minlashda yetakchilik qilayotgan O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati qoshidagi o‘quv ishlab chiqarish korxonalarining potensialidan maksimal foydalanish uchun qo‘l mehnatiga asoslangan tovarlarni ishlab chiqarishga yo‘naltirish, davlat xaridlari doirasida ushbu korxonalariga aligapolistik imtiyoz joriy qilish, kasanachilik va inklyuziv biznesni rivojlantirish maqsadida imtiyozli kreditlarni joriy etish takliflari berilgan;

ko‘zi ojiz shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus korxonalarda qo‘l mehnatiga asoslangan “ijtimoiy tovar”larni ishlab chiqarish va turistik maskanlarda yarmarkasini tashkil etish maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv, usul va ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillarning sotsialogik so‘rovlar, empirik usullar bilan ilmiy asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ko‘zi ojiz shaxslarning turmush sifatini oshirish va kambag‘allik darajasini qisqartirishning zamonaviy usul hamda mexanizmlari manbalarini aniqlash amaliyoti asosida aholi kambag‘al qatlamining daromad olish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yo‘nalishdagi taklif hamda tavsiyalarda o‘z aksini topadi. Tadqiqotning ilmiy natijalari inklyuziv bandlikni rivojlantirish asosida nogironligi bo‘lgan shaxslar va aholining boshqa zaif guruhlarining kambag‘allik darajasini qisqartirish hamda munosib ish bilan bandlik darajasini oshirishning konseptual asoslari yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish va davlat byudjeti xarajatlarini qisqartirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish, kambag‘allikni qisqartirishning hududiy dasturlarini, aholi turmush sifati va uning daromadlarini yanada oshirish bilan bog‘liq maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalaridan o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, oliy o‘quv yurtlarida “Iqtisodiyot nazariyasi”, “iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish”, “Ijtimoiy siyosat”, “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi” kabi fanlar ishchi o‘quv dasturlarini takomillashtirish va o‘qitish jarayonlarida ilmiy manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Inklyuziv bandlikni ta‘minlashning nazariy asoslari bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra, “inklyuziv bandlik” tushunchasining iqtisodiy mazmuni mehnat bozorida kam ta‘minlangan, nogironligi bo‘lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlarining ish bilan ta‘minlanishini rag‘batlantirish orqali iqtisodiy o‘shishda keng jamoat ishtirokini ta‘minlash, iqtisodiy faollik darajasini oshirish hamda daromadlar taqsimotida tenglikka erishish imkonini beruvchi mehnat resurslaridan to‘liq va adolatli foydalanishni ta‘minlash nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan nazariy yondashuvdan 310 000 - “Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar” ta‘lim sohalarining barcha ta‘lim yo‘nalishlari talabarlari uchun tavsiya etilgan “Iqtisodiyot” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi №302-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida oliy o‘quv yurti talabalarida inklyuziv bandlik hamda mehnat bozorida uning tutgan o‘rni haqidagi tushunchalar yuzasidan kengroq nazariy-uslubiy bilim va ko‘nikmalar hosil qilish imkoni yaratilgan;

nogironligi bo‘lgan shaxslarning qobiliyati va iste‘dodlaridan foydalanishga oid inson kapitali nazariyasi, inklyuziv iqtisodiyot, imkoniyatlar tengligi nazariyasi va qobiliyatlar yondashuvi konsepsiyalariga ko‘ra, boshlang‘ich ta‘limdan keyingi davrdan boshlab barcha ko‘zi ojizlar uchun ixtisoslashtirilgan “Nurli maskan” maktablarida shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan sinflar tashkil etish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 29-yanvardagi №04/31-3-1867-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilik raqamli iqtisodiyot natijasida yuzaga kelayotgan zamonaviy kasblarda ishlash uchun ko‘zi ojiz shaxslarga oldindan zaruriy ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga imkon beradi;

o‘rtacha yillik ishlovchilari soni 50 nafardan ortiq bo‘lgan xususiy biznes subyektlari jami xodimlarining 30 foizi nogironligi bo‘lgan shaxslardan iborat tadbirkorlik faoliyatiga “inklyuziv biznes” maqomi berish hamda mazkur korxonalariga davlat xaridlari va imtiyozli kreditlar taqdim etish orqali inklyuziv bandlikni oshirish hamda ko‘zi ojiz shaxslar qo‘l mehnatiga asoslangan kasblarga nisbatan yuqori talablarini hisobga olib, ularni kambag‘allikdan chiqarish va bandligini ta‘minlashga o‘z hissasini qo‘shgan tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning faolligini oshirish uchun turli xil ko‘rik tanlovlarni tashkil etish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabr PQ–330-sonli “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining 1-ilovasi 3-qismi 1-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 29-yanvardagi №04/31-3-1867-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida inklyuziv ish o‘rinlarini yaratishga bo‘lgan rag‘batlarni oshirib, kasbga ega bo‘lgan ko‘zi ojiz qatlamni ishga bo‘lgan tanlov imkoniyatlarini kengaytirgan.

nogironligi mavjud shaxslarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga oid moliyaviy inklyuziya nazariyasi va ijtimoiy tadbirkorlik konsepsiyasiga ko‘ra ko‘zi ojiz shaxslar o‘rtasida biznes savodxonligini oshirish uchun maxsus kurslar tashkil etish hamda biznes boshlashlari uchun

BHMning 100 baravariga teng foizsiz kreditlar ajratish orqali bandlik darajasini oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonining 1-ilova 23-bandida o‘z ifodasini topib, undagi maqsadlarni amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 29-yanvardagi №04/31-3-1867-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi ko‘zi o‘jiz tadbirkorlar qatlami vujudga kelishiga hamda ular inkluziv ish joylarini yaratishga imkon yaratgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 6 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 ta respublikada va 1 ta xorij jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 134 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan. Shuningdek, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari izohlangan hamda tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shu bilan birga, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Mehnat bozorida inklyuziv bandlik va uni tartibga solish**” deb nomlangan birinchi bobida inklyuziv bandlik tushunchasining mazmun-mohiyati va asosiy yo‘nalishlari, ko‘zi o‘jiz shaxslarni ish bilan ta‘minlashning obyektiv zarurati hamda ularni ish bilan ta‘minlash xorij tajribasi o‘rganilgan.

Jahon mamlakatlari uzoq yillik tajribalaridan kelib chiqib iqtisodiy rivojlanishning fundamental asosi bozor iqtisodiyoti hamda uning asosiy mexanizmlarini e‘tirof etishmoqda. Bizga ma‘lumki, ushbu iqtisodiyot ko‘plab afzalliklari bilan birgalikda o‘ziga xos ziddiyatlariga ham ega. Bu salbiy jihatlarga misol tariqasida “...jamiyat a‘zolari daromadlaridagi tengsizlikning kuchayib borishi va aholining tabaqalanishi bilan bog‘liq. Bunday iqtisodiyot har qanday yuksak darajada rivojlanmasin daromadlar tengsizligini bartaraf qila olmaydi, faqat uni ma‘lum darajada yumshatish mumkin”⁶ holatni keltirishimiz mumkin. Ushbu jarayonda, ayniqsa, aholining ijtimoiy zaif qatlami o‘z ichiga olib, ishsizlik yoki daromadlarining ehtiyojlarini qondirishga yetmaslik holati kuzatiladi. Bu toifadagi

⁶ Xodiyev B.Y, Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi.// darslik, “Barkamol fayz media”, Toshkent – 2017, 157-b, jami 784 -b.

aholi guruhlarini iqtisodiy faol hamda yuqori daromadlilar qatoriga qo'shish uchun davlat sektori tomonidan inklyuziv bandlik ta'minlanishi zarurdir.

Inklyuziv bandlik tushunchasi aslida nima ma'no anglatadi? Ushbu iborani to'liqroq anglashimiz uchun inklyuziv so'zining lug'aviy ma'nosiga muroajat qilamiz. Inklyuziv so'zi inglizcha "inclusive" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tiliga tarjima qilinganda "shu jumladan" yoki "birlashtiruvchi" degan ma'noni anglatadi"⁷. Ushbu ibora ijtimoiy va iqtisodiy sohada 10 yil muqaddam keng ko'lamda qo'llanilib nogironligi bo'lgan shaxslar va boshqa ehtiyojmand aholi qatlamini teng sharoitlarda yashashi, ta'lim olishi va mehnat qilishini ta'minlashni usullari va choralarini anglatmoqda. Hozirgi kunda ushbu so'z keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Masalan, inklyuziv ta'lim, inklyuziv jamiyat, inklyuziv biznes, iqtisodiyotning inklyuziv o'sishi kabi va boshqa ko'plab ko'rinishda foydalanilmoqda. Bizning fikrimizcha, inklyuziv bandlik deganda jamiyatning turli qatlamlarini, ya'ni jinsi, irqi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar teng mehnat sharoitlari orqali ish bilan ta'minlash tushuniladi. Bunday aholi toifalariga nogironligi bo'lgan shaxslar, pensiyonerlar, ya'ni qariyalar qatlami, ayollar, mahkumlar va jazo muddatini o'tab bo'lgan fuqarolar, voyaga yetmagan yoshlar, mehnat resurslarining potensial qismi misol bo'ladi. Doimo bu aholi guruhlari o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib alohida mehnat sharoitlariga muhtojdirlar. Ish beruvchilar tomonidan esa bu kabi shart-sharoitlar yaratish aksariyat hollarda yuqori xarajatlar talab qilganligi sababli salbiy qarashlar orqali qabul qilinadi.

Inklyuziv bandlik O'zbekiston sharoitida ilmiy tadqiqotlarda murojaat qilinmagan iqtisodiy tushuncha hisoblanadi. Yurtimizda inklyuziv bandlik fundamental asoslarini ta'minlash uchun xizmat qiladigan inklyuziv iqtisodiy o'sish, inkluziv biznes, inklyuziv ta'lim, inklyuziv jamiyat kabi yo'nalishlarda bir qancha tadqiqot ishlari mavjud. Dastlab inklyuziv ta'lim, ya'ni nogironlarni umumta'lim maktablarida integratsiyalashuv jarayonlari va so'nggi yillarda inklyuziv biznes, inklyuziv o'sish kabi ma'nolarda qo'llanilmoqda. Xususan, nogironlar muammolari doimo diqqat markazida ekanligi haqida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: "Nogironlarga ta'lim berish va ularni ishga joylashtirishning amaldagi tizimi zamonaviy talablarga javob bermaydi. Nogironlarni mehnat faoliyatiga jalb etish o'rtacha 2 foizni tashkil qiladi, bu esa mas'ul idoralarning ushbu sohadagi ishi qoniqarsizligidan dalolat beradi"⁸, - deb ta'kidlaganlar.

Dunyo davlatlarida inklyuziv bandlik vositasida iqtisodiy o'sishda keng jamoat ishtirokini ta'minlash, daromadlar taqsimotida tenglikka erishish va inklyuziv iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirishning kafolati ekanligi borasida tadqiqotlar kam uchraydi.

Inklyuziv bandlikni ta'minlashning nazariy jihatlarini ochish va uni davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida tutgan o'rnini ochib berish uchun ko'plab xorijiy olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar natijasi o'laroq inklyuziv bandlik iborasini izohlashga mutlaqo farqli bo'lmagan yondashuvlarni ko'rish mumkin.

⁷ <https://uz.goodinternet.org/uz/sections/faqs/inklyuziv-sozining-manosi-qaysi-sozdan-olingan/>

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-avgustdagi "Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida 5006-sonli farmoni //Lex.uz, 01,08.2017-y.

Inklyuziv bandlik tushunchasining nazariy jihatlari (xorijiy va mahalliy olimlar nazdida)⁹

Tadqiqotchi olimlar	Ta’rifi
Anne Leymat	Inklyuziv bandlik – barcha faoliyatni anglatib bu shaxsga individual imkoniyatidan kelib chiqib ish o‘rniga ega bo‘lish va yaxshi to‘lanadigan ishni tasarruf qilish imkonini beradi ¹⁰
Laila Onu	Inklyuziv bandlik – eng qiyin jarayon bo‘lib ko‘plab to‘siqlar mavjud: ekologik yetishmovchilik, inklyuziv bandlik foydasiga milliy siyosatning yo‘qligi, noto‘g‘ri qarashlar, inklyuziv ta’limning yetishmasligi va aqliy zaif odamlarning ijtimoiy ko‘nikmalarining yetishmasligi ¹¹
Gedik Cansu	Inklyuziv biznes – bu kam ta’minlangan odamlarga muhim mahsulot va xizmatlarni taklif qiladigan yoki ularning ta’minot zanjirlarida ishchilar, yetkazib beruvchilar yoki tadbirkorlar sifatida kam ta’minlangan odamlarni o‘z ichiga olgan biznes modellari ¹²
I.Jdanova	Inklyuziv ish bilan ta’minlash – jismoniy jihatdan qulay ish o‘rinlarini yaratish sifatida belgilanadi ¹³
L.Mojejkina	Inklyuziv bandlik – nogironligi bo‘lgan xodimlar uchun, shuningdek, bunday xodimlarni jamoaga birlashtirish, ular bilan teng munosabat, psixologik va pedagogik ta’sir amaliyoti tashkilotlar jamoalari va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ularni shakllantirish maqsadida mehnat bandligi g‘oyasining ustuvorligi haqidagi jarayondir ¹⁴
T.Maxmudov	Inklyuziv mehnat bozori – bu nogironligi bo‘lgan shaxslarni o‘zi erkin tarzda tanlagan kasbiga o‘qitib, maqbul mehnat sharoitlarida faoliyatini amalga oshirishiga moslashtirilgan maxsus ish joylari mavjud mehnat bozoridir ¹⁵
Q.Isayev	Davlatlar uchun inklyuziv biznes umumiy ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish va rivojlanishga samarali yondashuvni o‘zida mujassam etadi. Va nihoyat, aholi uchun inklyuziv biznes yaxshi hayot, ijtimoiy inklyuzivlik, bandlik va barqaror turmush manbaidir ¹⁶

Dunyo miqyosida “inklyuziv bandlik” tushunchasiga olimlarning turli yondashuvlar asosida keltirishgan ta’riflarini qiyosiy tahlil etish uchun 1-jadvalda tasnifladik. Ushbu ta’riflarni chuqur tahlil etish natijasida o‘z mualliflik ta’rifimizni ishlab chiqish maqsad qilingan.

Inklyuziv bandlikni rivojlantirish butun dunyo davlatlari uchun teng ahamiyatli bo‘lganligi sababli, bu atamaga xalqaro tashkilotlar turlicha yondashuvlarda bo‘lishgan. Ulardan ba’zilarini quyidagi jadvalda keltirdik (2-jadval).

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁰ Anne Leymat, Inclusive employment, Technical Resources Division June, 2011. 11-b.

¹¹ Laila Onu Laila Onu, Promoting inclusive employment: a Romanian experience.// Open Society Institute, 2009, 2-b.

¹² Gedik Cansu. Barqaror rivojlanish uchun inklyuziv biznes modellari //Kalit jurnali// “Samaradorlik fan va texnologiya” bosh boshqarmasining oylik, mart, 2017-yil. <https://www.mikadoconsulting.com/tr/> surdurulebilir-kalkinma-icin-kapsayici-is-modelleri/#:~:text=Kapsay%C4%B1c%C4%B1%20i%C5

¹³ Жданова И.В. Содействие инклюзивному трудоустройству выпускников вузов из числа инвалидов: концептуальные аспекты и опыт / И.В.Жданова, Л.Б. Можейкина // Известия РГПУ им. И. Герцена – 2020. – № 195. 82–88 betlar.

¹⁴ Можейкина Л.Б. Содействие инклюзивному трудоустройству выпускников вузов из числа инвалидов: концептуальные аспекты и опыт / И.В.Жданова, // Известия РГПУ им. И. Герцена – 2020. – № 195. 82–88 betlar.

¹⁵ Maxmudov T. Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida inklyuiv mehnat bozori istiqbollari, avtoreferat, Toshkent – 2024, 15-b.

¹⁶ Isayev Q. Har bir inson – bebaho kapital. // Xalq so‘zi, 2023, 34-son. 4-b.

Inklyuziv bandlikka xalqaro tashkilotlarning bergan ta'riflari¹⁷

Tashkilot nomi	Ta'rif
Xalqaro Mehnat Tashkiloti	Inklyuziv – bandlik barcha insonlar, ayniqsa, nogironlar va mehnat bozoridagi zaif guruhlar uchun teng imkoniyatlar va ijtimoiy himoyani ta'minlovchi siyosat va amaliyotlardan iborat
Birlashgan Millatlar Tashkiloti	BMTning “Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi”da inklyuziv bandlik barcha nogironlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash uchun ularni ishga qabul qilish, ish sharoitlarini moslashtirish va ularning jamiyatdagi to'liq ishtirokini ta'minlash sifatida ta'riflanadi
Yevropa Ittifoqi	Inklyuziv bandlik – barcha fuqarolar, shu jumladan, nogironlar va ijtimoiy zaif guruhlar uchun mehnat bozoriga kirish va unda faol ishtirok etish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni nazarda tutadi. YI “Nogironlar huquqlari to'g'risidagi strategiyasi”da barcha odamlar uchun teng imkoniyatlar yaratishga urg'u berilgan
Jahon banki	Inklyuzivlik – iqtisodiyotda kamsitilmaydigan shartlarning mavjudligi, shu jumladan, butun aholining ishlab chiqarish, taqsimlash jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlari va iste'mol qilish, shuningdek, ijtimoiy infratuzilmaga kirish umumiy aholi va uning alohida guruhlari uchun munosib hayot sifatidir

Inklyuziv bandlikning nazariy asoslari va mohiyatini ochish borasida mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borilmaganligi muallif izlanishlari natijasida aniqlandi.

O'zbek olimlar tomonidan inklyuziv ta'lim, inklyuziv jamiyat va inklyuzivlik haqida bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Ammo, aynan inklyuziv bandlik haqida tor doiradagi tadqiqotlar mavjud bo'lib, ulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz. Inklyuziv ish bilan ta'minlash iqtisodiy inklyuziv o'sish tushunchasi bilan to'g'ri proporsional bog'lanishga ega. Dunyo davlatlari o'rtasida muntazam Jahon iqtisodiy forumi tomonidan e'lon qilinib boruvchi Inklyuziv rivojlanish indeksi (Inclusive Development Index – IDI) e'tiborga loyiqdir. Ma'lumot o'rnida shuni aytishimiz joizki, ushbu indeks bo'yicha rivojlangan iqtisodiyotga ega davlatlardan Norvegiya, Luksemburg, Shveysariya, Islandiya, Daniya, Shvetsiya, Niderlandiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Avstriya kabi TOP reytingdan joy olgan. O'zbekiston iqtisodiyotining inklyuziv o'sish yo'nalishlarini tadqiq qilgan T.Sadullayev inklyuziv bandlik uchun tayanch hisoblangan inklyuziv o'sishga quyidagicha ta'rif keltirgan: “inklyuziv o'sish – mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining sifat jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan tushuncha hisoblanib, muayyan mamlakat aholisining turmush sharoitlarini oshirish orqali, ularning tabaqalanishi bilan kurashish hamda tashqi samaralarning ular hayot darajasiga ta'sirini baholash imkonini beradi”¹⁸.

Aholi turmush faravonligiga inklyuziv o'sishning ta'siri haqida M.Asqarova quyidagi fikrni ta'kidlagan: “Keng ma'noda inklyuziv o'sishning asosiy natijalari inson rivojlanishining eng muhim mezonlari: farovonlik, adolat va kengayish inson

¹⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁸ Sadullayev T.H. O'zbekiston iqtisodiyotining inklyuziv o'sishini ta'minlash yo'nalishlari, // avtoreferati, Toshkent – 2023, 12-b.

imkoniyatlari, uning tovarlarni ishlab chiqarish va tarqatishda faol ishtirokidir”¹⁹.

Inklyuziv bandlik bo‘yicha Abdulla Abduhalilov hamda Dilmurod Yusupovlar tomonidan O‘zbekistondagi nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan suhbatlar o‘tkazish asosida, ular ochiq mehnat bozoriga kirishda duch kelayotgan ko‘plab to‘siqlar aks etgan tadqiqot ishida “Inklyuziv bandlik jarayonida nogironlar duch keladigan muhim to‘siq O‘zbekistonda qulay jismoniy muhitning yo‘qligi hisoblanadi. Jismoniy nuqsonlari bo‘lgan va harakatchanligi cheklangan ishtirokchilar nogiron ishga joylashsa ham, Toshkent shahridagi jamoat infratuzilmasi obyektlarining mavjud emasligi ularning nogiron bo‘lmaganlar bilan teng ravishda mehnat qilishga, xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanishiga imkon bermasligini ta’kidladilar”²⁰ - degan fikrlar aytib o‘tilgan. Shuningdek, Qobiljon Isayev nogiromlarni mehnat bozoriga integratsiyalashuvi uchun inklyuziv biznesni rivojlantirish davlat va jamiyat manfaatlariga qay tariqa to‘g‘ri proporsional kelishi haqida shunday degan: “davlatlar uchun inklyuziv biznes umumiy ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish va rivojlanishga samarali yondashuvni o‘zida mujassam etadi. Va nihoyat, aholi uchun inklyuziv biznes yaxshi hayot, ijtimoiy inklyuzivlik, bandlik va barqaror turmush manbaidir”²¹.

3-jadval

Ijtimoiy ehtiyojmand aholi toifalari²²

1-toifa	2-toifa
Voyaga yetmagan farzandlari mavjud ota yoki onalar, ko‘p bolali yolg‘iz ota va onalar	Oliy ta’limni grand asosida tamomlagan hamda o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini tamomlagan yoshlar
3-toifa	4-toifa
Nogironligi bo‘lgan shaxslar va pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar	O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilganlar
5-toifa	6-toifa
Odam savdosidan jabrlanganlar	Qamoqxonalardan ozod etilgan shaxslar yoki shunga tenglashtirilgan aholi toifalari

Yuqorida biz bir nechta olimlar hamda tashkilotlarni inklyuziv bandlikka bergan ta’riflarini ko‘rib chiqdik hamda ushbu tushuncha jahon iqtisodiyotida juda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlamoqchimiz. Aynan ushbu iqtisodiy tushunchani milliy iqtisodiyotimiz uchun muhim dolzarblik kasb etishini hisobga olgan holatda davlat tomonidan bandligi ta’minlanishi birinchi navbatda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan aholi qatlami 3-jadvalda keltirildi.

Mehnat bozorida nogironligi bo‘lgan shaxslarning faoliyati samaradorligini tahlil qilgan o‘zbek olimlaridan biri T.Maxmudov o‘z ilmiy tadqiqotida inklyuziv mehnat bozoriga mualliflik ta’rifida “Inklyuziv mehnat bozori – bu nogironligi bo‘lgan shaxslarni o‘zi erkin tarzda tanlagan kasbiga o‘qitib, maqbul mehnat sharoitlarida faoliyatini amalga oshirishiga moslashtirilgan maxsus ish joylari mavjud

¹⁹ Asqarova M. Необходимость обеспечения инклюзивного экономического роста страны // Iqtisodiyotda innovatsiyalar, 4-jild, 4-son, Toshkent - 2021. 22-b.


²⁰ Yusupov D. Abduhalilov A. Barriers to disability-inclusive employment in Uzbekistan.// journal of International Development, 2022, 34-son, 1048 – 1068 betlar.

²¹ Isayev Q. Har bir inson – bebaho kapital // Xalq so‘zi, 2023, 34-son. 4-b.

²² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

mehnat bozori”²³ ekanligini keltirish orqali mehnat bozoriga kirishda faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar alohida imkoniyatlarga muhtoj ekanligi nuqtayi nazaridan yondashgan.

Yuqoridagi olimlar va turli tashkilotlar fikrini o‘rganib chiqqan holda Inklyuziv bandlik atamasiga mualliflik ta’rifimizni quyidagicha ishlab chiqdik. Ushbu atama mazmun va mohiyatan nogironligi bo‘lgan shaxslarning ish bilan bandligi hamda turli ijtimoiy, psixologik, siyosiy va turmush sharoitidan kelib chiqib to‘siqlarga duch kelayotgan aholi qatlamining bandligini qamrab oladi. Muxtasar qilib aytganda, **“inklyuziv bandlik” – aholining ijtimoiy ehtiyojmand qismi (kam ta’minlangan, nogironligi bo‘lgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlari)ning teng sharoitlar muhitida shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishi va mehnat daromadiga ega bo‘lishi bilan bog‘liq faoliyatdir.**



1-rasm. Inklyuziv bandlikni ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari²⁴

Imkoniyatlar tengligi nazariyasiga ko‘ra, inklyuziv bandlik asosiy yo‘nalishlarini belgilab oldik hamda nogironligi bo‘lgan shaxslar va boshqa mehnat bozorida zaif guruhlarga ish o‘rinlarini yaratish va ularga mehnat bozorida teng imkoniyatlar yaratishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarga aniqlik kiritildi.

Xorijiy mamlakatlarda va davlatimizda ko‘zi ojizlar qaysi kasblarda ish bilan bandligini aniqlash maqsadida ushbu kasblarni jadvalda aks ettirishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

²³ T.Maxmudov. Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida inklyuiv mehnat bozori istiqbollari, avtoreferat, Toshkent – 2024, 15-b.


²⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ko'zi ojizlar faoliyat olib borayotgan kasblar tasnifi²⁵

Xorijiy davlatlarda	O'zbekistonda
Dasturchi	O'qituvchi
O'qituvchi	Musiqachi
Ilmiy tadqiqotchi	Hunarmand, ishchi
Advokat	To'quvchi, tikuvchi
Huquqshunos maslahatchi	Huquqshunos
Journalist	NJB xodimi
Muharrir	Maxsus kutubxona xodimi
Xonanda	
Kompozitor	
Musiqqa o'qituvchisi	
Call-markaz operatori	

Xorijda keng ko'lamda amal qiladigan, ammo O'zbekistonda aksariyat hollarda uchratilmaydigan kasb-lavozim turlari dasturchi, massaj terapevti, operator va kompozitorlardir. Ushbu kasblarga ko'zi ojizlarni oldindan yo'naltirishga xizmat qiladigan dasturlar ishlab chiqish ularning mehnat bozorida tanlov imkoniyatlarini oshiradi.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston Respublikasida inklyuziv bandlikni ta'minlashning hozirgi tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida ko'zi ojiz shaxslarning ish bilan bandlik holati va unga ta'sir qiluvchi omillar tahlili hamda ularning bandligida O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyatiga qarashli korxonalarining tutgan o'rnini, O'zbekistonda ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlashning huquqiy asoslari kabi masalalar tadqiq etilgan.



2-rasm. Ish bilan band nogironligi bo'lgan va ko'zi ojiz shaxslarning taqqoslama tahlili²⁶


²⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2-rasm ma'lumotlari bizga yillar kesimida ish bilan band bo'lgan nogironligi mavjud shaxslarning qancha ulushi ko'zi ojiz shaxslar hissasiga to'g'ri kelishini yaqqol ko'rsatib turibdi. Misol uchun, 2023-yilda ish bilan band nogironligi bo'lgan shaxslarning atigi 4,1 %ini ko'zi ojizlar tashkil etmoqda. Yillar kesimida eng yuqori ko'rsatkich 2018-yilga to'g'ri kelib, u 10,5 %ga teng bo'lgan. 2018–2023-yillar kesimida ikkala toifa o'rtasida ham bandlik ortisada, ammo ko'zi ojiz shaxslar bandlining o'sish jadalligi pastligi hisobiga jamiga nisbatan ulushni taqqoslasak yillar o'tgani sari pasayish kuzatilmoqda.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot sharoitida intellektual mehnat salohiyatiga ega bo'lgan ishchi kuchiga nisbatan talab ortib bormoqda. Tadqiqotlar natijasida, oliy va o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lganlar jami ko'zi ojiz fuqarolarga nisbatan 15,5 foizni brayl yozuvi bo'yicha savodxonlik darajasi atigi 7 foizni tashkil etmoqda. Ushbu ma'lumotlar bizga ko'zi ojiz shaxslarni qayta kasbga o'qitish hamda qo'l mehnatiga asoslangan ish joylarini taklif etish, real bozordagi hozirgi kundagi ishsizlikni bartaraf etsa, kelgusida yuqori sig'imli ilmiy salohiyat talab etiladigan kasblarga yo'naltirish bo'yicha davlat siyosati ishlab chiqish lozimligini anglatadi.

Mehnat bozorida samaradorlik darajasini belgilaydigan yana bir omil ishchi kuchining ma'lumoti, ya'ni oliy ta'lim bilan qamrovi holatidir.



3-rasm. 2025-yil holati bo'yicha ko'zi ojiz shaxslarning ta'lim va ma'lumotlilik darajasi²⁷

Ko'zi ojiz shaxslar nogironlik guruhiga qarab mehnat faoliyatini olib borishlari uchun turli darajada to'siqlarga duch kelishadi. 3-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, zamonaviy kasblarga tayyorgalik darajalari, kompyuter savodxonligi past

²⁷ O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati markaziy boshqaruvi ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

darajani 2024-yil yanvar holatiga ko‘ra, O‘zKOJ hisobiga turuvchi jami ko‘zi o‘jiz shaxslarning 10,7 foizigina bazaviy darajadagi bilimga egaligini, shuningdek, I va II guruh nogironlikka ega bo‘lgan ko‘zi o‘jiz shaxslar jamiga nisbatan 80 foizni tashkil etishmoqda. Jumladan, brayl yozuvi bo‘yicha savodxonlik darajasi yuqoridagi ma‘lumotlarda juda pastligini jamiga nisbatan 7 foiz, ya‘ni 5901 kishiga tengligini ko‘rsatmoqda. Ayni bu holatlar ushbu toifa shaxslarning mehnat bozorida raqobatbardosh emasligini anglatadi.

5-jadval

Ko‘zi o‘jiz shaxslarning ish bilan bandlik va oliy ta‘lim bilan qamrab olinganlik darajasi (2017 – 2023-yillar)²⁸

Ko‘rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Jami ko‘zi o‘jizlar soni	67570	67688	71796	71487	72833	81945	84143	86512
Mehnatga layoqatlilar soni	33970	34044	36706	37989	40419	45612	47961	49120
Bundan:	-	-	-	-	-	-	-	-
Ish bilan bandlar soni	1917	2847	2813	2753	2543	2987	3011	3256
OTMda ta‘lim olayotganlar	427	483	572	811	819	1050	1257	1496

Mamlakatimizda ish bilan bandlik darajasi 2018-yildan 2021-yilga qadar pasayishni aks ettirgan. Jumladan, 2018-yilda mehnatga layoqatlilarga nisbatan ish bilan bandlar ulushi 8,4 foizni, 2021-yilda esa bu ko‘rsatkich 6,3 foizga tushgan. Foiz ko‘rsatkichlar so‘nggi 2022- va 2023-yillarda mos ravishda 6,5 foizdan 6,3 foizga pasaygan bo‘lsada, son qiymatda bazis yillarga nisbatan o‘shishni ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston ko‘zi o‘jizlar jamiyati markaziy boshqaruvining ma‘lumotlari hamda ular o‘rtasida o‘tkazilgan iqtisodiy holatni aniqlashga qaratilgan so‘rovnoma natijalariga asoslanib ishsizlik darajasini topib olamiz.

Quyidagi statistik ma‘lumotlar natijasida ishsizlar soni 12 853 kishiga tengligi ma‘lum. Shunday ekan ushbu ko‘rsatkich bizga ko‘zi o‘jiz fuqarolar o‘rtasida ishsizlik darajasini topib olishga imkon beradi.

Ishsizlik darajasi = (ishsizlik : ishchi kuchi) * 100 % = 31,8 % ga teng

Ko‘zi o‘jiz shaxslar o‘rtasidagi ishsizlik darajasi davlat miqyosidagi ishsizlik darajasidan qariyb bir necha barobar yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekistonda ko‘zi o‘jiz shaxslar quyidagi asosiy omillar sababli mehnat bozorida talab darajasi past hisoblanadi:

savodxonlik darajasining pastligi;

kompyuter savodxonligining minimal darajadorligi;

inklyuziv ta‘limning amalga joriy etilmaganligi;

intellektual mehnat qobiliyati shakllanmaganligi;

ko‘zi o‘jiz shaxslarning zamonaviy kasblar bo‘yicha raqobatbardosh emasligi;

ruhiy psixologik omil;

qulay infratuzilma mavjud emasligi;

axborot resurs manbalarining yetishmovchiligi.

Ushbu omillar ko‘zi o‘jiz shaxslarning mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa olmayotganligiga asosiy sabab hisoblanadi. Yuqoridagi sanab o‘tilgan barcha omillar

²⁸ O‘zbekiston ko‘zi o‘jizlar jamiyati markaziy boshqaruv ma‘lumotlariga asosan muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

tizimli muammo hisoblanib, nogironligi bo‘lgan shaxslarning egallagan ta’limi uning kasbiy rivojlanishi uchun xizmat qilmaydi.

